Tijorat banklarining investitsiya portfellarini takomillashtirish istiqbollari

Maxametov Saitdjalolxon Azamovich

Farg‘ona davlat texnika universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekiston tijorat banklari investitsiya portfellarining 2019-2024-yillardagi rivojlanish sur’atlari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish istiqbollari asoslab berilgan. Investitsiyalar o‘sishi aktivlar o‘sishi bilan qiyoslangan, portfel o‘sishining notekisligi va uning pul-kredit siyosati instrumentlariga bog‘liqligi aniqlangan. Tahlil natijasida 2030-yilgacha investitsiyalarning aktivlardagi ulushini 10–13 foizga yetkazish, kapitalga nisbati va durasiya bo‘yicha ichki limitlar belgilash, instrumentlar tarkibini diversifikatsiya qilish hamda portfel tarkibini oshkor qilishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, investitsiya portfeli, qimmatli qog‘ozlar, o‘sish sur’ati, diversifikatsiya, durasiya, foiz riski, istiqbol.

Abstract. The thesis analyses the growth of the investment portfolios of Uzbekistan’s commercial banks in 2019–2024 and substantiates the prospects for improving them. The growth of investments is compared with the growth of total assets, and the uneven pace of portfolio growth and its dependence on monetary policy instruments are identified. Based on the analysis, proposals are made to raise the share of investments in bank assets to 10–13% by 2030, to set internal limits on the investment-to-equity ratio and portfolio duration, to diversify the range of instruments and to disclose portfolio composition.

Keywords: commercial bank, investment portfolio, securities, growth rate, diversification, duration, interest rate risk, prospects.

Аннотация. В тезисе проанализированы темпы развития инвестиционных портфелей коммерческих банков Узбекистана в 2019–2024 годах и обоснованы перспективы их совершенствования. Рост инвестиций сопоставлен с ростом активов, выявлены неравномерность роста портфеля и его зависимость от инструментов денежно-кредитной политики. По результатам анализа разработаны предложения по доведению доли инвестиций в активах банков до 10–13 % к 2030 году, установлению внутренних лимитов на отношение инвестиций к капиталу и дюрацию портфеля, диверсификации инструментов и раскрытию структуры портфеля.

Ключевые слова: коммерческий банк, инвестиционный портфель, ценные бумаги, темп роста, диверсификация, дюрация, процентный риск, перспективы.


Kirish

Tijorat banklarining investitsiya portfeli bank aktivlari tarkibida likvidlik zaxirasi, qo‘shimcha daromad manbai va riskni diversifikatsiya qilish vositasi vazifasini bajaradi [10]. Portfel nazariyasiga ko‘ra, uning samaradorligi faqat hajmi bilan emas, balki daromadlilik, risk va likvidlik o‘rtasidagi muvozanat bilan belgilanadi [9].

O‘zbekistonda bank tizimini isloh qilish strategiyasi [1] va kapital bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari [2] doirasida milliy valyutadagi davlat qimmatli qog‘ozlari bozori shakllandi, bu esa banklar investitsiya portfelining tez o‘sishiga olib keldi. Shu bilan birga, portfel hajmi oshgani sari uni boshqarish sifatiga qo‘yiladigan talablar ham kuchaymoqda. Tezisning maqsadi – banklar investitsiya portfeli rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash va uni takomillashtirish istiqbollarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot natijalari

Tahlil «Ahbor-Reyting» reyting agentligining 1.01.2021, 1.01.2022, 1.01.2024 va 1.01.2025 holatiga tijorat banklari reytinglari [3, 4, 5, 6] asosida amalga oshirildi. 2019–2024-yillarda banklar investitsiyalari 3,0 trln so‘mdan 57,1 trln so‘mga yetib, 19 barobar oshdi, aktivlar esa 2,8 barobar ko‘paydi. Natijada investitsiyalarning aktivlardagi ulushi 1,10 foizdan 7,42 foizga ko‘tarildi.



1-rasm. Tijorat banklari investitsiyalari va aktivlarining yillik o‘sish sur’atlari, %

1-rasmdan ko‘rinadiki, investitsiyalar o‘sishi aktivlar o‘sishidan barcha yillarda, 2023-yildan tashqari, sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. 2020-yilda investitsiyalar 213,7 foizga, 2021-yilda 107,8 foizga, 2022-yilda 60,5 foizga o‘sgan bo‘lsa, aktivlar o‘sishi 21–34 foiz oralig‘ida qolgan. 2023-yilda esa investitsiyalar atigi 1,2 foizga oshib, aktivlar o‘sishidan (17,1 %) orqada qoldi. Bu davr bank tizimida likvidlik qisqargan va muomaladagi 26 trln so‘mlik Markaziy bank obligatsiyalari 2023-yil sentabriga kelib to‘liq so‘ndirilgan davrga to‘g‘ri keladi [7]. 2024-yilda investitsiyalar yana 79,1 foizga o‘sdi.

Ushbu notekislik ikki muhim xulosaga olib keladi. Birinchidan, banklar portfeli hajmi hanuzgacha Markaziy bankning likvidlik operatsiyalariga kuchli bog‘liq bo‘lib, portfel strategik emas, balki ko‘proq vaziyatga qarab shakllanmoqda. Ikkinchidan, portfelning tez o‘sishi foiz riskini oshirmoqda: 2024-yilda investitsiyalar bank tizimi xususiy kapitalining 49,8 foiziga teng bo‘ldi. Agar portfel durasiyasi davlat g‘aznachilik obligatsiyalarining o‘rtacha muddatiga (2,4 yil [8]) yaqin deb olinsa, daromadlilikning 1 foiz bandga oshishi kapitalning taxminan 1,2 foizi miqdorida qayta baholash

zarariga olib kelishi mumkin. Xorijiy tajriba bunday riskning jiddiy oqibatlari bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [11].

Aniqlangan tendensiyalar asosida investitsiya portfelini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari va 2030-yilgacha bo‘lgan mo‘ljallar ishlab chiqildi (1-jadval). Portfel hajmi bo‘yicha mo‘ljal bank aktivlari yiliga 15 foizga o‘sishi va investitsiyalar ulushi 10–13 foizgacha bosqichma-bosqich oshishi taxminiga asoslangan.

1-jadval

Tijorat banklari investitsiya portfelini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Hozirgi holat (2024-yil yakuni)	2030-yilgacha mo‘ljal (taklif)
Investitsiyalarning aktivlardagi ulushi	7,42 %	10–13 %
Investitsiya portfeli hajmi	57,1 trln so‘m	178–231 trln so‘m
Investitsiyalarning kapitalga nisbati	49,8 % (ayrim banklarda 100 % dan yuqori)	Har bir bank uchun ichki limit belgilanadi va stress-test bilan asoslanadi
Portfel durasiyasi	Reyting va ommaviy tahlillarda aks etmaydi (DG‘O o‘rtacha muddati – 2,4 yil)	Majburiyatlar muddatiga muvofiqlashtirilgan durasiya limiti
Instrumentlar tarkibi	Asosan davlat qog‘ozlari; korporativ obligatsiyalar bozori bank investitsiyalarining ≈9 % i	Korporativ, ipoteka va “yashil” obligatsiyalar ulushini oshirish
Axborot oshkoraligi	Portfel tarkibi instrumentlar kesimida oshkor etilmaydi	Instrument turi, emitent, muddat va MHXS 9 toifalari bo‘yicha oshkor qilish

Taklif etilayotgan mo‘ljallarga erishish uchun portfelni boshqarishda uch tamoyilga amal qilish maqsadga muvofiq: portfel hajmini likvidlik holatiga emas, balki bankning uzoq muddatli aktiv-passiv strategiyasiga bog‘lash; foiz riskini Bazel qo‘mitasining bank portfelidagi foiz riski (IRRBB) standartlari [12] asosida baholash; instrumentlar va emitentlar bo‘yicha diversifikatsiyani kengaytirish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari investitsiya portfellari so‘nggi besh yilda bank balansining muhim tarkibiy qismiga aylandi, biroq ularning o‘sishi notekis va pul-kredit siyosati instrumentlariga bog‘liq. Investitsiya portfellarini takomillashtirish istiqbollari quyidagilar bilan belgilanadi: 2030-yilgacha investitsiyalarning aktivlardagi ulushini 10–13 foizga yetkazish; investitsiyalarning kapitalga nisbati va portfel durasiyasi bo‘yicha ichki limitlarni joriy etish; korporativ, ipoteka va “yashil” obligatsiyalar hisobiga portfelni diversifikatsiya qilish; portfel tarkibini instrumentlar, muddatlar va MHXS 9 toifalari kesimida oshkor qilish. Ushbu choralar banklar

investitsiya faoliyatining daromadliligi, likvidligi va barqarorligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son Farmoni. 2020-yil 12-may. // www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-son Farmoni. 2021-yil 13-aprel. // www.lex.uz

3. «Ahbor-Reyting» RA. Ренкинг коммерческих банков на 1 января 2021 года // Аналитический обзор банковского сектора. – Ташкент, 2021.

4. «Ahbor-Reyting» RA. Ренкинг коммерческих банков на 1 января 2022 года // Аналитический обзор банковского сектора. – Ташкент, 2022.

5. «Ahbor-Reyting» RA. Рэнкинг коммерческих банков на 1 января 2024 года // Аналитический обзор банковского сектора. № 74. – Ташкент, 2024.

6. «Ahbor-Reyting» RA. Рэнкинг коммерческих банков на 1 января 2025 года // Аналитический обзор банковского сектора. № 78. – Ташкент, 2025.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2023-yil uchun yillik hisobot. – Toshkent, 2024. // www.cbu.uz

8. Ziyodullayeva N. O‘zbekistonda davlat qarzini boshqarish qanday amalga oshirilmoqda? // O‘zA, 15.09.2026. URL: https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-davlat-qarzini-boshqarish-qanday-amalga-oshirilmoqda_909096

9. Markowitz H. Portfolio Selection // The Journal of Finance. – 1952. – Vol. 7, No. 1. – P. 77–91.

10. Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management & Financial Services. 9th ed. – New York: McGraw-Hill, 2013.

11. Jiang E.X., Matvos G., Piskorski T., Seru A. Monetary Tightening and U.S. Bank Fragility in 2023: Mark-to-Market Losses and Uninsured Depositor Runs? // Journal of Financial Economics. – 2024. – Vol. 159. – 103899.

12. Basel Committee on Banking Supervision. Interest Rate Risk in the Banking Book. Standards. – Basel: BIS, 2016.